

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ  
ЁНДАШУВЛАР : ИСТИҚБОЛЛАР, МУАММОЛАР  
ВА ЕЧИМЛАР**

*(Республика масофавий илмий-амалий анжумани)*

БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

“Мактабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар: истиқболлар, муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани илмий моқола ва тезислар тўплами (2020-йил, 3-ноябрь).  
Бухоро: 2020 йил.

**Бош муҳаррир:**

Педагогика фанлари номзоди, доцент Г.А.Камилова

**Тақризчилар:**

Авезов С.С. – ф.ф.н, доц.

Тўхсанов Қ.Р. – ф.ф.н, доц.

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:**

М.Б.Шарипова – Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Н.Н.Ҳамроева - Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Ушбу Республика масофавий илмий-амалий анжуманининг илмий мақола ва тезислари тўпламида Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни, “Ўзбекистон Республикасида илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари”, “Илк қадам” Давлат ўқув дастури, шунингдек, мактабгача таълим тизимини ривожлантириш борасидаги ислоҳотларда белгиланган, соҳада амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш ва бу борадаги тақлифларни ишлаб чиқиш бўйича илмий, амалий ва услубий тавсиялар ишлаб чиқилган.

*Мазкур тўпламга киритилган мақолалар ва тезисларнинг мазмуни, статистик маълумотлар ҳамда билдирилган фикр ва мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.*

**Бухоро - 2020 йил, 3-ноябрь**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR  
RIVOJLANISHIDA “ILK QADAM” DAVLAT O’QUV  
DASTURINING AHAMIYATI**

*BuxDU, Maktabgacha ta’lim kafedrası o’qituvchisi  
M.J.Turdiyeva*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida mavjud muammolar, bu muammolarni bartaraf etishdagi amalga oshirilayotgan islohotlar va “Ilk qadam” davlat dasturining ahamiyati haqida fikr yuritilgan. MTMda mashg’ulotlarning interfaol metodlar asosida tashkil etishning afzalliklari ko’rsatib berilgan.*

**Kalit so’zlar:** *maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim yoshi, islohotlar, ta’lim-tarbiya, uzluksiz ta’lim, pedagogik jarayon, fan, interfaol.*

**Аннотация:** *в статье рассматриваются существующие проблемы в системе дошкольного образования, проводимые реформы, направленные на решение этих проблем, и важность государственной программы «Первый шаг».*

*Показаны преимущества организации занятий на основе интерактивных методов в ДОУ.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дошкольный возраст, реформы, образование, непрерывное образование, педагогический процесс, наука, интерактив.

**Annotation:** *the article examines the existing problems in the preschool education system, ongoing reforms aimed at solving these problems, and the importance of the state program "First Step". The advantages of organizing classes based on interactive methods in PEO are shown.*

**Key words:** *preschool education, preschool age, reforms, education, continuous education, pedagogical process, science, interactive.*

Maktabgacha ta'lim tizimi inson shakllanishidagi eng muhim bo'g'in, eng muhim davr hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, mazkur ta'lim yoshi garchi inson hayotining qisqa fursati bo'lsada, bu davrda bola butun hayoti davomida o'rganganining ko'p foizini anglab yetadi va o'rganadi. Bu davr kelajak hayot uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xo'sh, ushbu tizimda qanday muammolar mavjud va ular qay tariqa hal qilinmoqda? Sohada qanday yangiliklar kuzatilmoqda? Islohotlardan nimalarni kutish mumkin?

Bola hayotidagi muhim sanalgan ushbu ta'lim bosqichida bir qancha hal etilishi va yechimini topishi zarur bo'lgan masalalar mavjud. Jumladan:

- maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'la qamrab olish;
- maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan tarzda tashkil etish;
- mashg'ulotlarni interaktiv tarzda, qiziqarli o'tishini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalab, maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda mazkur sohani yanada taraqqiy ettirish, farzandlarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratish yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga

qamrab olishda nafaqat davlat, balki nodavlat ta'lim muassasalarining hisssasi sezilarli ortmoqda.

Umuman, mazkur vazirlik tashkil etilgandan buyon, maktabgacha ta'lim muassasalari 5211 tadan 8104 taga, bolalarni qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 52 foizga oshgani diqqatga molik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon sodda, yosh guruhlariga mos va rang-barang bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Mashg'ulotlarda bolalarning dunyoqarashlarini har tomonlama, ham jismoniy, ham ma'naviy, ham ruhiy shakllantirish va rivojlantirish masalalarini asosiy maqsad sifatida belgilab olish hozirgi pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan sanaladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishga pedagog-tarbiyachilarga davlat tashkilotlari tomonidan yetarli darajada moddiy-texnik va uslubiy-metodik yordamlar ko'rsatilmoqda. Masalan, 2018yildan tatbiq qilinayotgan yangi maktabgacha ta'lim sohasi uchun "Ilk qadam" dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi MTMLarga yetkazilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda birinchi marta hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilgan.

“Ilk qadam” dasturining asosiy vazifalari:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iborat.



Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha boʻlgan bolalarni besh yoʻnalishda rivojlantirish kerakligi koʻrsatilgan.

<b>Bolalarni rivojlantirishning asosiy sohasi</b>	<b>Kichik rivojlanish sohalari</b>
1. Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ yirik motorika</li> <li>➤ mayda motorika</li> <li>➤ sensomotorika</li> <li>➤ sogʻlom turmush tarzi va xavfsizlik</li> </ul>
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ “Men” konsepsiyasi</li> <li>➤ hissiyotlar va ularni boshqarish</li> <li>➤ ijtimoiylashuv,</li> <li>➤ kattalar va tengdoshlar bilan muloqot</li> </ul>
3. Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ nutq va til</li> <li>➤ oʻqish malakalari</li> <li>➤ qoʻl barmoqlari mayda motorikasi</li> </ul>
4. Bilish jarayonining rivojlanishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ intellektual-anglash malakalari</li> <li>➤ elementar matematik malakalar</li> <li>➤ tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat</li> </ul>
5. Ijodiy rivojlanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ dunyoni badiiy tasavvur etish</li> <li>➤ badiiy-ijodiy qobiliyatlar</li> </ul>

Bu besh yoʻnalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga:

- «Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish» sohasi

kompetensiyalariga

- «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalariga
- «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalariga
- «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalariga
- «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalariga ega bo'ladi, ya'ni

ular 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladilar va maktab ta'limiga tayyor bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Yangi dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlarini. Pedagog ota-onalar, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil etishi lozim. Dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziquvchan, harakatchan, tashabbuskor, erkin fikrlovchi, kuzatuvchan, sog'lom qilib tarbiyalash ota-onalar va tarbiyachilar oldida turgan muhim vazifa sanaladi. Mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda zamon talablariga xos, bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar-interfaol metodlar orqali tashkil etish juda yaxshi samara beruvchi omil sanaladi.

Tarbiyachi tomonidan mashg'ulotlar davomida qo'llaniladigan interfaol metodlar bolalarning qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda ularning ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta'limning sifatini oshiruvchi muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

6. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2020-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror. T.: 2016 y. 26 dekabr.
7. Maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.: 2018 y.
8. Otavaliyeva U. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.: 1994 y.
9. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.:Tafakkur bo'stoni. 2013 y.